



“TASDIQLAYMAN”

Qo'shtepa tuman hokimi

A. Abdullayev
A. Abdullayev

2025 yil “ ”

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bo'yicha
Qo'shtepa tumani hokimligining ichki
REGLAMENTI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori ijrosiga asosan, tuman hokimliklariga korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori talablari ushbu Reglament bilan tartibga solinadigan munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

3. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar – fuqarolar, fuqarolik bo'lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotlarining yoki boshqa nodavlat tashkilotlarining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisi;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — tayyorgarlik qilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e'lon qilingan shaxslarni topshishda yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish — korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashish;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar — O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 611, 1931 va 1932-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 1929 va 19210, 205, 209 - 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarini amalga oshiruvchi organlar(keyingi

o‘rinlarda – korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

4. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda – rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga muroosiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

axolining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga ko‘shayotgan hissassi uchun munosib takdirlash.

5. Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

6. Ushbu Reglament talablari quyidagi shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

mansabdor shaxslar, shu jumladan, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko‘maklashuvchi shaxslar;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ishtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan shaxslar.

7. Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilandi.

2-bob.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish asoslari va turlari

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotlarining yoki boshqa nodavlat tashkilotlarining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotlarining yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqaruvchi organining xizmatchisi o‘ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoki o‘ziga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa bevosita o‘z rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

korruptsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan shaxs to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

9. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

a) korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorning uch barobari miqdorida;

b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz barobarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining besh barobari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yetti barobari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh barobari miqdorida;

v) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz barobaridan yuz barobargacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n barovari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh barovari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma barovari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh barovari miqdorida;

g) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz barovaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun - pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foiz miqdorida;

ko'p yoki juda ko'p miqdor uchun - pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoki o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foiz miqdorida.

Bunda pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoki o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi;

d) qidiruvda bo'lgan shaxsning yashiringan joyi haqida xabar berganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh barovari, ikki yoki undan ortiq qidiruvda bo'lgan shaxslarning yashiringan joyi haqida bir vaqtda xabar berganligi uchun esa - bazaviy hisoblash miqdorining yetti barovari miqdorida.

10. Korruptsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga xabar berganlik yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashganlik uchun shaxs tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida

rag'batlantirish tarzida taqdirlanadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

Esdalik sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ikki barovaridan oshmasligi lozim.

11. Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxs:

ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt barovari;

xar xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og'irrok tasnif bo'yicha bir marta;

bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat haqida yoki qidiruvda shaxs to'g'risida ikki yoki undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun mazkur Tartibning 9 va 11-bandlarida ko'rsatilgan pul mukofoti miqdorining teng ulushlarida rag'batlantiriladi.

12. Shaxs korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

13. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilinganidan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari hozirdan sudning ayblov huquqi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1-3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

qidiruvdagi shaxsga nisbatan qidiruvning bekor qilinganligi to'g'risida prokurorning, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi qabul qilinganda.

14. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar xuzurida tuziladigan maxsus komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bunda, viloyat darajasidagi hududiy boshqarmalar tomonidan rag'batlantirish to'g'risidagi taklifnoma bilan hududiy maxsus komissiyalarga chiqadilar.

16. Maxsus komissiya tarkibi, faoliyat yuritish tartibi, raisi va a'zolarining huquq hamda majburiyatlari korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar tomonidan belgilanadi.

17. Takdimnoma rag'batlantirish uchun quyidagi hujjatlar asos sifatida ilova qilinishini lozim:

ruyhatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan habarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

qidiruvni bekor qilish haqida, shuningdek, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim yoki qaror nusxasi;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning shaxsiy hisobvaraqi bo'lgan bank rekvizitlari.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning rag'batlantirish bo'yicha takdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus komissiyalarga takdim etiladi.

19. Maxsus komissiyalar tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida takdim etilgan hujjatlarining to'liqligi, asosiligi hamda ushbu Reglament talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

20. Rag'batlantirish uchun takdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Reglament talablariga rioya qilinmaganligi aniqlanganda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan takdirda, tegishli hujjatlar ushbu Reglament talablar asosida rag'batlantirish uchun qayta takdim etilishi mumkin.

21. Rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyalar tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida takdimnomani kiritgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organga ijro uchun yuboriladi.

22. Maxsus komissiyalarning raislari komissiya qarori qonuniyligi, holisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkora etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

23. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti harajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilganda so'ng o'n ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarafiga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilingan buyum harid qilingandan so'ng besh ish kuni ichida topshiriladi.

24. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi.

4-bob.

Korrupsiya holatlari xaqida xabar bergan xodimlarni ta'kibga olinmasligi kafolati

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'qibga olinmasligi kafolatlanadi.

5-bob.

Yakunlovchi qoidalar

26. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

27. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28. Ushbu Reglament talablari buzilganligida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.